

O'zbekistondagi qaysi mintaqaviy ichki yo'llar ta'mirlanadi?



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2017 yilning 14 fevral kuni imzolangan "2017-2018 yillarda mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ikki yil davomida ta'mirlanadigan mamlakatdagi ichki yo'llar va ko'chalar viloyatlar va tumanlar kesimida tasdiqlandi.

Qarorga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 295 kilometr, Andijon viloyati bo'yicha – 324 kilometr, Buxoro viloyati bo'yicha – 439 kilometr, Jizzax viloyati bo'yicha – 222 kilometr, Qashqadaryo viloyati bo'yicha – 679 kilometr, Navoiy viloyati bo'yicha – 216 kilometr, Namangan viloyati bo'yicha – 309 kilometr, Samarqand viloyati bo'yicha – 479 kilometr, Surxondaryo viloyati bo'yicha – 535 kilometr, Sirdaryo viloyati bo'yicha – 267 kilometr, Toshkent viloyati bo'yicha – 516 kilometr, Farg'ona viloyati bo'yicha – 520 kilometr, Xorazm viloyati bo'yicha – 321 kilometr va Toshkent shahri bo'yicha – 332 kilometr yo'llar va ko'chalarni ta'mirlash nazarda tutilgan.

Mazkur qarorning 3-ilovasiga muvofiq 2017-2018 yillar davomida xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko'chalarini to'la va joriy ta'mirlashning asosiy parametrlari aniqlandi.

Ushbu ro'yhat bilan mana bu [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin.

"O'zavtoyo'l" AK matbuot xizmati

[Ro'yhatni yuklab olish \(pdf, 426 kb\)](#)